



O'ZBEKISTONDA ORATORIYA JANRINI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.

M.Zokirjonova

O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Akademik xor dirijyorligi" kafedrası

1-bosqich magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14958340>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- Fevral 2025 yil

Ma'qullandi: 25- Fevral 2025 yil

Nashr qilindi: 28- Fevral 2025 yil

KEY WORDS

Oratoriya, ariya, rechitativ, xor.

ABSTRACT

Oratoriya janri kontsert ijrosi uchun mo'ljallangan katta vokal-simfonik asarlarni o'z ichiga oladi. U yakka xonandalar, xor, orkestr va mutolaachi uchun yaratilgan yirik musiqiy kompozitsiyalarni qamrab oladi. Oratoriya vokal ansambl, ariya, rechitativ, xorlar, tugal orkestr nomerlaridan iborat. Oratoriyada hikoyanafislik dramatik voqeadan ustunlik qilib, vokal ansambl, ariya, rechitativ, xorlar va tugal orkestr nomerlaridan tuziladi. Bu janr o'zbek kompozitorlari ijodida ham o'z o'rniga ega bo'lib. B.Arapov, A.Kozlovskiy, Ik.Akbarov, M.Ashrafiy, M.Bafojev kabi kompozitorlar ijod qilishgan.

Har bir davr musiqa madaniyatining o'ziga xos jihatlari bor. Masalan, eramizdan avvalgi asrlardan V asrga qadar davom etgan musiqa madaniyati asosan monodik ya'ni bir ovozli ko'rinishda bo'lgan. Bu davrda musiqa asosan Misr, Xitoy, Hindiston kabi qadimgi Sharq mamlakatlarida, keyinroq esa qadimgi Yunonistonda turli marosimlarda ishlatilgan. V asrdan XIV asrgacha davom etgan ya'ni qadimgi dunyo bilan yangi tarix orolig'idagi davr - o'rta asrlarda musiqa madaniyati turli o'zgarishlarga yuz tutdi. Jumladan G'arbiy Yevropa mamlakatlarida musiqaning rivoji asosan xristan cherkov madaniyatiga bog'langan edi. Aynan cherkov xorida musiqaning ko'p ovozlik ya'ni polifonik uslubi qaror topdi¹

Oratoriya janri Italiyada XVI asrlarda deyarli opera va kantata bilan bir vaqtda paydo bo'lgan. Oratoriya so'zi - italyancha oratorio, lotincha oratorium, oro - so'zlayman, o'tinaman ma'nolarini anglatadi. Yakka xonandalar xor, orkestr va ba'zan mutolaachi uchun yaratilgan yirik musiqa asari, odatda konsert ijrosi uchun mo'ljallanadi, biroq aralash - sahnalashtirilgan turlari ham mavjud. Oratoriya vokal ansambl, ariya, rechitativ, xorlar, tugal orkestr nomerlaridan tuziladi. Operadan farq qilib, oratoriyada hikoyanafislik dramatik voqeadan ustunlik qiladi. Kantatadan shakl va hajm jihatidan kattaligi bilan, keng mazmuni bilan farqlanadi. Dastlab oratoriya asosan injil va unga oid matnga yozilgan va ibodatxonalarda cherkov bayramlarida ijro etishga mo'ljallangan. Asta sekin ko'proq dunyoviy hususiyatlariga ega bo'lib bordi. Vena klassik maktabi namoyondalari oratoriya bilan birga opera san'atini o'zlarining mashhur asarlari bilan boyitishdi. Ayniqsa, Y.Gaydnning "Dunyoning yaratilishi" («Сотворение мира»), "Yil fasllari" («Времена года») oratoriyalari bunga misol bo'la oladi. Bundan tashqari G.F.Gendelning "Messiya", "Samson", "Iuda Makkavey" kabi 32 ta oratoriyasi,

I.S.Baxning "Ioanga bo'lgan ehtiros" («Страсти по Иоанну»), "Matfeyga bo'lgan ehtiros" («Страсти по Мотфею») va "Rojdetsvo oratoriyasi" shular jumlasidandir.

XIX asrdan boshlab oratoriya janri yanada rivojlanib uch qismli asarga aylandi: L.Betxovenning "Iso Zaytun tog'ida" («Иисус на Масличной горе»), F.Mendelsonning "Pavel" («Павел»), "Iliya" («Илия»), R.Shuman "Jannat va Pari" («Рай и Пери»), F.List "Yevezaveta haqidagi afsona" (« Легенда о Еливете»), G.Berlioz "Isoning bolaligi" («Детство Христа») asarlari misol bo'ladi. Rus kompozitorlari tomonidan ham oratoriya janrida ko'plab ijod namunalarini ko'rishimiz mumkin. Masalan: S.Dektyarovning "Minin va Pojarskiy" («Минин и Пожарский»), A.Rubinshteynning "Bobil ehromlari" («Вавилонское столпотворение») oratoriyalaridir.

XX asrda konsert estradasida va teatrda birdek ijro etish mumkin bo'lgan "Opera - Oratoriya" janri shakllandi: A.Oneggerning "Shoh David" («Царь Давид»), I.Stravinskiyning "Shoh Edip" («Царь Эдип») oratoriyalari bu janrga na'munadir. Zamonaviy musiqada esa oratoriya janri katta tarixiy va ijtimoiy voqealar mavzularini yoritishda qo'llanilgan: M.Kovalning "Yemelyan Pugachov" («Емельян Пугачёв»), D.Shostakovichning "O'rmon haqidagi qo'shiq" («Песня о лесах»), S.Prokofyevning "Tinchlikni qo'riqlash" («На страже мира»), G.Sviridovning "Potetik oratoriyasi" («Потетическая оратория»), D.Kabalevskiyning "Marsiyasi" («Реквием») nomli oratoriyalari misol bo'la oladi.

Bu janr o'zbek kompozitorlari ijodida ham o'z o'rniga egadir. Ilk o'zbek oratoriyasi "Jaloliddin Xorazmiy" deb nomlangan bo'lib mualliflari B.Arapov va A.Kozlovskiydirlar. Keyinchalik Ik.Akbarov "Toshkentnoma", M.Ashrafiy "Rustam haqida doston", M.Bafoyev "Buxoronoma" oratoriyalarini yaratishga erishishgan². O'tgan asrning 30-yillarida kompozitorlar ijodida kantata-oratorial janri keng rivojlanadi. O'zbekistonda bu janr urush yillaridan keyingi davrda yanada rivojlandi. M.Ashrafiyning "Baxt haqida qo'shiq", "O'zbekiston"; S.Yudakovning "G'alaba", - bu oratoriyalarda ozod O'zbekistonning gullagan bog'lari, bir vaqtlar qaqragan cho'lda, o'zbek xalqining mehnati bilan yaratilgan chamanzorlari kuylanadi. Cho'lni o'zlashrtiruvchilarining yorqin obrazlari yaratilgan.

60-70 yillarda S.Boboyevning "Paxta bayrami", F.Nazarovning "O'zbekiston xotin-qizlari", H.Raximovning "Bahor", I.Hamrayevning "Qoraqalpog'iston", A.Xalilov va boshqalar asarlari yoziladi.

O'zbekistonda va undan tashqarida S.Yudakovning ijodi keng ommalashgan. U turli janrdagi musiqa asarlari muallifi hisoblanadi. Uning qalamiga bir nechta kantata-oratoriya asarlari mansub. "G'alaba" S.Yudakovning birinchi oratoriyasi Turob To'la so'zlariga yozilgan bo'lib 1945 yilda xalqlarining g'alabasi aks ettirilgan. Bu davrda O'zbekistonda xor madaniyati endi rivojlanayotgan edi. Kompozitorning ijodiy balog'atga to'la yetishmaganligi kantataning xor qismiga ta'sir qiladi: oktava-unison ohanglar ustunligi, xor partiyalarida o'rinli foydalanganlik natijasida xorlar ohangi qichqiriqli yoki aksincha jarangsiz chiqqan³.

S.Yudakovning ijodida mahoratni muntazam oshirib borish namoyon bo'ladi. Uning san'atkorlik mahorati asardan-asarga takomillashadi, uning yozish usuli, xor ohangdoriligi sifati oshib boradi. S.Yudakovning xor asarlari shubxasiz o'zbek xor madaniyatiga qo'shgan katta xissasi hisoblanadi.

60-yillarning oxiri 70-yillarning boshlarida kompozitorlarning shunday asarlari yaratildi. Ular mashhur shoirning A.Navoiy, A.Firdavsiy, U. Hayyomning ijodiga bag'ishlangan. M.Burxonovning "A.Navoiyga qasida", I.Akbarovning "Hamsa" sahifalaridan, M.Ashrafiyning "Rustam haqida doston" epik oratoriyasi shular jumlasidandir.

60-80 yillarda O'zbekiston kompozitorlar ijodi rivojlanishi davom etadi. Ko'p mavzular O'zbekiston va uning poytaxti haqida tarannum etilgan. Ik.Akbarovning "Toshkentnoma" oratoriyasi, "Mening shahrim" kantatalar yirik musiqa asari, M.Bafojevning "Toshkent" haqida qo'shiq oratoriyasi, F.Yanov-Yanovskiyning "Shoirona bandlari", M.Tojiyevning "Toshkent-do'stlik shahri", S.Yudakovning vokal-simfonik poemalari "Visol" (1968y), "Alyor" (1972 y), "Muborakbod" kantatasi (1972 y), "O'zbekiston" poema-kantatasi (1973 y), "G'alaba" balet-oratoriyasi (1976 y), "Paxta" vokal-xoreografik poemasi (1981 y).

Mustaqillik yillarida P.Medyulovaning "Русская месса" oratoriyasi, O.Abdullayevaning "Vafo" opera-oratoriyasi, Ik.Akbarovning "Toshkent boylab sayohat" oratoriyasi, R.Abdullayevning "Quyoshga ta'zim qil" ("Поклонись солнцу") balet oratoriyasi, H.Raximovning "Xujand Jahon" oratoriyasi va S.Yusupovning "Tanovar" oratoriyasi K.Azimovning "Jahon xayratidan qadim Buxoro" oratoriyasi, M.Bafojevning "Yetti pir" oratoriyasi, B.Tursunboyevning "Usmon Nosir" opera - oratoriyasi taqdim etildi⁴.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.V.Shamahmudova "Xor lug'ati" Toshkent 2009 yil
2. O.Ibrohimov, J.Sadirov "Musiqqa" 7-sinf uchun darslik Toshkent 2017 yil
3. Yu.Xusnitdinova. "O'zbek xor adabiyoti". Toshkent 2018 yil
4. Internet ma'lumotlar: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7779134> "Kantata va oratoriya janrlarining O'zbekiston musiqa madaniyatida tutgan o'rni" Gulzira Muhiddinova maqolasidan

INNOVATIVE
ACADEMY

⁴ <https://doi.org/10.5281/zenodo.7779134> "Kantata va oratoriya janrlarining O'zbekiston musiqa madaniyatida tutgan o'rni" Gulzira Muhiddinova maqolasidan.